ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

# НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

# НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ АХБОРОТИ

2021 йил 8-сон

***Бош муҳаррир:*** *Наманган давлат университети ректори С.Т.Турғунов*
***Масъул муҳаррир:*** *Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов*
***Масъул муҳаррир ўринбосари:*** *Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиги Р.Жалалов*

**Т А Ҳ Р И Р Ҳ А Й Ъ А Т И**

**Физика-математика фанлари:** акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов. ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

**Кимё фанлари:** акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

**Биология фанлари:** акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.н.

**Техника фанлари:** - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

**Қишлоқ хўжалиги фанлари:** – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

**Тарих фанлари:** – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

**Иқтисодиёт фанлари:** – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

**Фалсафа фанлари:** – акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

**Филология фанлари:** – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

**География фанлари:** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

**Педагогика фанлари:** - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

**Тиббиёт фанлари:** – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

**Психология фанлари** – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррирлар: *Н.Юсупов, Г.Акмалжонова*

**Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.**
***Тел.:*** (0369)227-01-44, 227-06-12 ***Факс:*** (0369)227-07-61 ***e- mail***: *ilmiy@inbox.uz*

*Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.*

*"НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ" журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси хамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. "НамДУ Илмий Ахборотномаси" электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 10.08.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб,*

*илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 8**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.*

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021**

# MAKTAB TA'LIMIDA JISMONIY TARBIYA FANINI O'QITISHNING JORIY HOLATI, MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Mamajonov Dilshodbek Adxamovich
Karimov Nematjon Xolyigitovich
Namangan davlat universiteti
Ismatov Pulatjon Abdumannobovich
Andijon davlat universiteti
Tel: 99 976-04-07 e-mail: olimpia-1992@mail.ru

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi Jismoniy tarbiya fanining amaldagi joriy holatini tahlil qilish hamda muammo va kamchiliklarni o'rganish hamda ularning yechimlari haqida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Jismoniy tarbiya darsi, jismoniy tarbiya, ta'lim, jismoniy tarbiyaning maqsadi.*

# СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ, СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Мамажонов Дилшодбек Адхамович
Каримов Нематжон Холйигитович
Наманганский государственный университет
Исматов Пулатжон Абдуманнобович
Андижанский государственный университет
Tel: 99 976-04-07 e-mail: olimpia-1992@mail.ru

***Аннотация.*** *В данной статье в целях обеспечения реализации задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан «О мерах по развитию образования и науки в новый период развития Узбекистана», проводится анализ современного состояния физической образование в школах и изучение проблем и недостатков и их решения.*

***Ключевые слова:*** *урок физкультуры, физическое воспитание, воспитание, цель физического воспитания.*

# THE CURRENT STATE OF PHYSICAL EDUCATION IN SCHOOL EDUCATION, EXISTING PROBLEMS AND WAYS TO SOLVE THEM

Mamazhonov Dilshodbek Adkhamovich
Karimov Nematjon Kholyigitovich
Namangan state university
Ismatov Pulatjon Abdumannobovich
Andijan state university
Tel: 99 976-04-07 e-mail: olimpia-1992@mail.ru

***Annotation.*** *In this article, in order to ensure the implementation of the tasks set in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to develop education and science in a new period of development of Uzbekistan", the analysis of the current state of physical education in schools and the study of problems and shortcomings and their solutions are carried out.*

***Key words:*** *physical education lesson, physical education, education, the purpose of physical education.*

So‘nggi yillarda mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda [1].

Pedagog va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro aloqasi faoliyat maqsadini belgilash, uni amalga oshirishni rejalashtirish, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayonini amalga oshirish hamda o‘zini o‘zi nazorat qilish faoliyati orqali amalga oshiriladi [3].

Pedagogik mehnat ma’lum darajada takrorlanmaydigan, uning natijasi esa vaqtidan yiroqlashtirilgan. Pedagogik mehnatning mazmuni o‘quv dasturlari bilan belgilanadi, o‘qituvchining bilim berishi, o‘quvchilarni o‘zlashtirish va nazorat qilish bilan bog‘liq. Uni tashkil etishni shakl va uslublari esa ko‘proq o‘qituvchiga bog‘liq [4].

Mamlkatimizda jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga va hozirgi davrda rivojlanishining istiqbolli vazifalariga muvofiq, ta’lim tizimi sohasida jismoniy tarbiya tizimini zamonaviylashtirish *(modernizatsiya qilish)* asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya va sog‘lomlashtirish salohiyatini oshirish, “Jismoniy tarbiya” fanini o‘qitishning yuqori sifatini ta’minlash uchun sharoit yaratish, shuningdek, ushbu fanni o‘qitish metodikasini takomillashtirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Maktab yoshidagi bolalar jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayoni biz pedagoglardan maktab o‘quvchilari bilan ishlash jarayonida ularning jismoniy madaniyatini asosi, uning mazmuni, strukturasi, vositalari, tashkillash shakillari, hayotiy zaruriy harakatlarga hamda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga o‘rgatishning metodlariga oid maxsus kasbiy nazariy va kasbiy amaliy bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi [2].

Maktab yoshidagilar jismoniy madaniyati va jismoniy tarbiyasi jarayonining maqsadi – bitiruvchilarda texnik obyekt hamda jismoniy tarbiya ta’limi jarayoni davomida olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo‘ladigan kompetensiyalarni shakllantirish, Vatanga bo‘lgan mehr tuyg‘ularini yanada oshirish, ularning nostandart vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qila olishi, fikrlash va dunyoqarashlarini kengaytirish va ma’naviy hamda jismonan barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, Jismoniy tarbiya fanini o‘qitishning yuqori sifatini ta’minlash uchun sharoit yaratish, shuningdek ushbu fanni o‘qitish metodikasini takomillashtirish xisoblanadi.

Jismoniy tarbiya fanining maqsadlaridan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi Jismoniy tarbiya fanining amaldagi joriy holatini tahlil qilish hamda muammo va kamchiliklarni o‘rganish jismoniy tarbiya ta’limini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Namangan davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasining Namangan viloyatining tuman va shaharlaridagi umuta'lim maktablarida tashkil etilgan jismoniy tarbiya o'qituvchilarini metodik qo'llab-quvvatlash markazlarida olib borilgan tadqiqotlar, Jismoniy tarbiya fanining amaldagi joriy holati va to'plangan tajribalar, viloyatdagi Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari bilan o'tkazilgan suhbatlar hamda so'rovnomalar tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ldi.

O'quvchilarning, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi holati bo'yicha monitoring nazoratini olib borish uchun zamonaviy texnologiyalarga asoslagan o'quv-uslubiy majmualarni yaratish ishlari amalga oshirilmagan;

Xalq ta'limi sohasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida Jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun o'quv axborot resurslarini rivojlantirish hamda "Jismoniy tarbiya tizimi"dagi milliy an'analar va eng yaxshi muvaffaqiyatli dunyo amaliyoti bo'yicha o'quv loyihalari, dasturlari va modullarining yagona milliy elektron kutubxonasini (ma'lumotlar bazasini) yaratish ishlarga e'tibor qaratilmagan;

Xalq ta'limi tizimida umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining o'quv va darsdan tashqari shakllarini o'tkazish uchun havfsizlik choralari yetarlicha ta'minlangan;

ta'lim ishtirokchilari (o'quvchilar) munosabatlari talablariga muvofiq sport zallarining zamonaviy jihozlari va inventarlari bilan jihozlanishi talab darajasida emas;

yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchi o'quvchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchi o'quvchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va o'quvchilarni o'z ustida muntazam ishlashlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud;

jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini va multimedia mahsulotlarini joriy etishga yetarli darajada e'tibor berilmayapti;

Jismonan, ruhan sog'lom, baquvvat, epchil va chaqqon bo'lishlari hamda ijodiy erkinlikni ta'minlash maqsadida o'quvchi va amaliyotchi o'qituvchilar DTS asosida ko'rgazmali qurollar, sport plakatalari hamda tarqatma materiallar, metodik qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalarni yo'qligi, ularni yaratilishi hamda ulardan tajriba-sinov tarzida foydalanishni yo'lga qo'yilmaganligi;

mazkur fanda o'qitiladigan mavzular sinflar bo'yicha tahlil qilinganda o'quvchilar uchun hech qanday ko'rgazmali qurollar mavjud emasligi;

mavjud darsliklar bugungi kunda foydalanib kelinayotgan o'quv dasturga to'g'ri kelmasligi hamda ko'plab mavzular fanlar va mavzulararo integrallashtirilmaganligi [5].

Jismoniy tarbiya ta'limini rivojlantirish quyidagi vazifalarga asosan amalga oshiriladi:

-ta'limning belgilangan bosqichlarida izchil ta'limli o'qitish tizimini yaratish;

-jismoniy tarbiya ta'limining ilmiy-metodik ta'minotini boyitish;

-jismoniy tarbiya ta'limi tizimining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, zamonaviy o'qitish vositalari va texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

-jismoniy tarbiya ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

- o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida o'qitilayotgan jismoniy tarbiya ta'lim jarayonini o'zaro uzviyligini ta'minlash;

-kadrlarni tayyorlash, mavjud kadrlar ta'minotini modernizatsiyalash va inson potentsialidan samarali foydalanish;

-malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta'lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;

-ta'limning barcha bosqichlarida fan bo'yicha olimpiadani tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish Nizomini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

-iqtidorli sportchi talabalarni aniqlash va talaba-yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish maqsadidia sport turlari bo'yicha musobaqalar va tanlovlarini tashkil etish;

-zamonaviy standartlarga mos keluvchi jismoniy tarbiya fanining turli yo'nalishlarni tadqiq qilish va joriy etish;

-talabalarda loyihalash va tadqiqot ishlari madaniyatini shakllantirish;

-ta'limning ilg'or amaliyotini ommalashtirish va ta'limda o'qitish shakllarini takomillashtirish;

-fanning o'quv-uslubiy va moddiy-texnik ta'minotini takomillashtirish;

-talabalarlarning jismoniy tayyorgarligiga oid shaxsiy ko'rsatkichlarini rivojlanishga yordam beradigan bazaviy ko'nikma va qobiliyatlarni egallashlari uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, jismoniy tarbiya ta'limi doirasida va undan tashqari faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni o'zlashtirish;

-shaxsninig ma'naviy va jismoniy barkamol rivojlanishiga qaratilgan qadriyatlarni tarbiyalash, vatanparvarlik va insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish;

-talabalarda jismoniy mashqlar bilan tizimli shug'ullanishga asos(motiv)larni va ehtiyojlarni shakllantirish;

-talabalar va pedogog xodimlar faoliyatida o'quv dasturlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnologik vositalar, axborot resurslari, ma'lumotlar bazasini kengaytirish;

-jismoniy tarbiya sohasida kadrlar salohiyatini rivojlantirish;

-talabalarda jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarziga oid ko'nikmalarni shakllantirishga qiziqish motivatsiyasini oshirish.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchi kadrlarni pedagogik mehnatga tayyorlash majmuali muammo bo'lib hisoblanadi. Jismoniy tarbiya o'quv fani sifatida jismoniy tarbiya o'qituvchi shaxsining gormonik rivojlanishi va jismoniy takomillashuvini, ijtimoiy faolligi prfessional tayyorgarligi, darajasini ta'minlashga da'vat etadi.

Bo'lajak o'qituvchilar jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy madaniyat qadriyatini shunday darajasini egallashlari kerakki, nafaqat salomatlikni mustaxkamlash balki, shu bilan birga o'quvchilar bilan birga tarbiyaviy ishlarda jismoniy tarbiya va sportdan faydalanish bo'yicha professional omilkorlikning oliy darajasini ham ta'minlaydi. Bunda o'qituvchi ma'suliyatlarining minimum darajasi bilan chegaralanib qolmasligi kerak, u tashkilotchi va xakamlik holatiga kirib, bolalarning o'qishi va dam olishini, jismoniy rivojlanishini va jismoniy takomillashuvini ta'minlashi kerak. Jismoniy tarbiya va sport vositalaridan real foydalanish esa ularning umummadaniy va professional rivojlanishning muhim ko'rsatkichidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni. Toshkent sh., 2020-yil 6-noyabr.
2. А.Абдуллаев, Ш.Хонкелдиев. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. Дарслик, 2-жилд. "Навруз" Нашриёти. 2018 й. – 68 б.

3. B.Boyboboyev. Olimpiya ta’limi va jismoniy tarbiya jarayonida pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. Namangan. 2018 yil. – 21 b.
4. Т.Исмоилов. Замонавий жисмоний тарбия ўқитувчисининг педагогик фаолияти. Ўқув қўлланма. Наманган. 2018 йил. – 6 б.
5. Namangan davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchilarining xisobotlari. 2021 yil, yanvar.

## КИТОБХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХОРИЖ ТАЖРИБАЛАРИ

Муминова Дилафрўз Акбаралиевна
Наманган давлат университети бошланғич таълимда аниқ ва табиий фанларни ўқитиш методикаси кафедраси мудири, PhD
Email: dilbarxon2008@mail.ru

**Аннотация :** *Мазкур мақолада хорижий тажрибаларнинг бошлангич синф ўқувчиларида китобга муҳаббат уйготиш бўйича олиб борган илмий-тадқиқот ишлари, китобхонлик, китобхонликка қизиқтиришда ота ва оналарнинг ўрни, ўқиш қоидалари, бадиий адабиётга бўлган қизиқишларини оширишга доир маълумотлар келтирилган.*

**Калит сўзлар:** *бошлангич синф, китоб, хорижирий, ота-она, ўқувчилар, китобхонлик, нутқ, бадиий адабиёт, таълим, саводхонлик, шахс, мутолаа маданияти.*

## FOREIGN EXPERIENCES IN THE FORMATION OF LIBRARY

Muminova Dilafruz Akbaralievna
Head of the Department of Methods of Teaching Exact and Natural Sciences in Primary Education, Namangan State University, PhD

**Annotation:** *This article provides information on research conducted by foreign experts on the love of books in primary school students, reading, the role of parents in the interest in reading, the rules of reading, increasing interest in fiction.*

**Keywords:** *primary school, book, foreign, parent, students, reading, speech, fiction, education, literacy, personality, reading culture.*

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЕ ЛЮБЬВИ К КНИГАМ

Муминова Дилафруз Акбаралиевна
Зав.кафедрой Методики преподавания естественно-математических дисциплин в начальной школе факультета Дошкольного и начального образования Наманганского государственного университета

**Аннотация :** *В данной статье рассматриваются материалы зарубежных иследователей в начальный классах о правильной чтение, любовь в художественной литературе и книге, а также придуисмотрены читательские культура правильного чтения*

**Ключевые слова:** *начальный класс, книга, ученики, читательских, умений, художественная литература, чтение, культура чтения*

| | | |
|---|---|---|
| | **фойдаланишнинг аҳамияти**<br>Восиева А.Т ........ | |
| 89 | **Публицистик матнлар билан ишлашда миллий-маданий ёндошув**<br>Джумамбетова Д.К ........ | 468 |
| 90 | **Техника олий таълим муассаларида талабаларни ижодкорлик қобилиятларини шакллантириш**<br>Инамидинова Д.К ........ | 474 |
| 91 | **Интерфаол таълим асосида дарсларни ташкил қилиш – таълим самарадорлигини ошириш манбаи сифатида**<br>Хаитбаева Г. И ........ | 479 |
| 92 | **Мактабда рус тилини ўрганувчиларнинг билимларини назорат қилишни назарий ва психологик асослаш**<br>Турдиева Д.М ........ | 486 |
| 93 | **Boshlang'ich sportchi o'uvhchilarini jismoniy rivojlanishida sport to' garaklarini mazmuni va uning tuzilishi**<br>Jiyanov O.M, Nabijonova M. M ........ | 494 |
| 94 | **Анализ антропонимов на основе этнолингвистических факторов**<br>Джумаева Д.Б ........ | 499 |
| 95 | **Вопросы цифрового вещания по системе Dab**<br>Иноятова Н.С ........ | 506 |
| 96 | **Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти" фанини ўргатишда интерфаол методлардан фойдаланиш**<br>Исматов П.А ........ | 511 |
| 97 | **Yosh basketbolchilarning ish qobilyatlarini tiklashda, biologik va tibbiy vositalardan foydalanish**<br>Mirzayev S., Исмоилов T, Otamirzayev O........ | 516 |
| 98 | **Оила, махалла, мактаб ҳамкорлигида ўқувчиларнинг таълим олишга бўлган кучли мотивациясини оширишга замонавий ёндашувлар**<br>Махмуджонов А. Б........ | 519 |
| 99 | **Maktab ta'limida jismoniy tarbiya fanini o'qitishning joriy holati, mavjud muammolar va ularning yechimlari**<br>Mamajonov D.A, Karimov N.X , Ismatov P.A ........ | 525 |
| 100 | **Китобхонликни шакллантиришда хориж тажрибалари**<br>Муминова Д. А ........ | 529 |
| 101 | **Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari**<br>Pardaboyev O'A ........ | 535 |
| 102 | **Роль наставничества в современном образовании**<br>Хайдаров С.Н ........ | 539 |
| 103 | **Саид Аҳмаднинг "Қоракўз мажнун" ҳикояси матни устида ишлаш жараёнида фанлараро интеграциядан фойдаланиш**<br>Абдуллаев К.А ........ | 544 |
| 104 | **Использование мультивариантной технологии при формировании понятий** | 553 |